

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY – IQTISODIYOT FAKULTETI

IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

FAN: IJTIMOIIY ISH TARIXI VA NAZARIYASI VA USLUBIYATI

REFERAT

**MAVZU: JAMIYATNING YAXLIT TIZIM SIFATIDA
O'RGANISHDA TIZIMLILIK METODI**

Bajardi: Ergashev D.

Tekshirdi: kat.o'qit.M.Sherov

Samarqand – 2014 yil.

Mavzu: JAMIYATNING YAXLIT TIZIM SIFATIDA O'RGANISHDA TIZIMLILIK METODI

Reja:

Kirish

Asosiy qism

1. Jamiyatdagi o'zaro ijtimoiy aloqadorlik va ijtimoiy tashkilotlar.
2. Ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy mavqye (status), ijtimoiy sanksiya va ijtimoiy rol tushunchalari.
3. Jamiyat ijtimoiy tizim sifatida.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Jamiyat – kishilar hayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli bo'lib, o'z tuzilishi jihatdan murakkab tizimni tashkil qiladi. Bizning hozirda yashab turgan jamiyatimizni sosial tizimning muayyan konkret shakli sifatida, uning funksional va rivojlanish qonuniyatini, har bir bo'lakchalarining, o'ziga xos tomonlarini, o'zaro munosabatlarini ilmiy jihatdan o'rganib, to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga egadir.

Jamiyatdagi o'zaro ijtimoiy aloqadorlik va ijtimoiy tashkilotlar.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibi – ijtimoiy tizimlar va ularning elementlari o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar turini tashkil qilib, ijtimoiy munosabatlar mafkurasini ifodalaydi hamda turli ijtimoiy guruhlar, mehnat taqsimoti, ijtimoiy institutlar harakterini aks ettiradi.

Jamiyat, uning tizimlari o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega bo'lib ularning asosiy komponenti inson hisoblanadi. Kishilar ijtimoiy hayotning turli sohalarida – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, oila-turmushda faoliyat ko'rsatadilar. Ularning asosida ijtimoiy tarkiblar tuziladi. Ijtimoiy tizimlarning murakkabligi, tarkibidagi elementlarning soni ko'pligi bilan emas, asosan, bu elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabatlar harakteri bilan belgilanadi. Shuning uchun ham hozirda «Respublika barcha fuqarolari va yuridik shaxslarga tashabbus ko'rsatish va ishbilarmonlikni rivojlantirish uchun ho'jalik faoliyatining qonun tomonidan man etilmagan barcha turlarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim»¹ - deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov.

Ijtimoiy iizimlar zanjirida turli, o'ziga xos xalqaga ega bo'ladilar. Ichki tashkiliy tuzilishi, harakteri, funksional va rivojlanish darajasi, turmush tarzi faoliyat shakli va usullari bilan qadriyatlar tizim, norma g'oyalari, qarashlari va boshqa jihatlarini bilan o'zaro farq qiladilar.

¹ I.A.Karimov. “Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура”. 65-бет.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibini konkret tarixiy davr sistemasida olib qarash talab qilinadi. Chunki ko'pchilik tarixiy ijtimoiy tizim tarkibi o'zaro sifat va xususiyatlari bilan farq qiladi.

Umumiy ma'nodagi ijtimoiy tarkib-jamiyatning bir butun tarkibini tashkil qiladi. Bu ijtimoiy tarkibning element sifatida jamiyatning ijtimoiy munosabatlariga mos tushuvchi iqtisodiyoti, siyosati, ideologiyasi kabi sohalar kiradi. Ikkinchi, maxsus, keng ma'nodagi ijtimoiy tarkibga ijtimoiy tarixiy birlik majmuasi va ular o'rtasidagi aloqa, munosabatlar kiradi. Bu tarkib milliy-etnik, ijtimoiy-demografik, mutaxassislik ixtisoslik va boshqa shu kabi sohalar kiradi.

Tor ma'nodagi ijtimoiy tarkib tushunchasiga mehnat jamoalari, hududiy birlik, nisbatan tez o'zgaruvchan guruhlar kiradi. Bozor munosabatlarining tarkib topishi jarayonida O'zbekiston ijtimoiy tarkibida keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlarni yuqorida ko'rsatilgan uch metodologik bosqich bo'yicha sosiologik tadqiq qilish – asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

1. «Birlamchi» yoki «texnik» daraja ijtimoiy tizim elementlarining bevosita aloqadorligini ifodalaydi.

2. Boshqaruv yoki «menedjerial» daraja, birlamchi darajadagi ijtimoiy tizimlar elementlarining o'zaro aloqadorligini tartibga solib turadi. Bu daraja tashqi tarkibiy aloqalar bo'g'inlari bilan munosabatlar o'rtasida vositachilik rolini bajaradi. Ijtimoiy tartibni nazorat qiladi, kuzatadi, kishilarning moddiy jihatdan ta'minotini boshqaradi.

3. «Instituti» daraja yanada umumiyroq masalalar bilan shug'ullanadi. Bunga boshqaruv, institutlar va rahbariyat, ma'muriy idora organlari, ularning vakillari kiradi.

4. Oliy darajadagi, umumdavlat darajasidagi jamiyat tashkilotlari. Bunga davlat hokimiyati, huquqiy va boshqa tashkilotlar kiradi. Ular quyi darajalar ustidan nazorat qiladi va ularni tartibga keltiradi. Parsons sosiologik maktab qarashicha, jamiyat funksional tizimlardan iborat. Bu maktab vakillari dinning jamiyat hayotidagi funksional ahamiyatiga ham yuqori baho berganlar.

JAMIYATDAGI O'ZARO IJTIMOIIY ALOQADORLIK VA IJTIMOIIY TASHKILOTLAR.

Har qanday ijtimoiy jamiyatning siyosiy sistemasi jamoa bo'lib yashayotgan odamlarning ijtimoiy sinflarga bo'linib ketishi va davlatning vujudga kelishi jarayonida shakllanib, keyin sinfiy davlat hokimiyati jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida tobora takomillashib, ildiz otib, amal qilish ko'lamini kengaytib va chuqurlashib boraveradi. Lekin uning tarkibiy qismlari va bo'laklari har qanday jamiyatda ham bir xil o'zgarmay saqlanib qolavermaydi.

Siyosiy sistema tarkibida shakllangan o'zgarmaydigan bo'laklar va qismlar, sistemachalar, ya'ni sossietil sistemalar mavjud bo'lib, ular bir jamiyatdan ikkinchisiga o'tib amal qilaveradi, ammo ularning mazmuni o'rnatilgan tuzum mazmuniga mos ravishda o'zgaradi va o'zgarib boradi. Masalan, davlat, siyosiy firqalar kabi tarkibiy bo'laklar ko'pchilik sinfiy jamiyatlarning muqarrar tarzda amal qilinadigan tarkibiy qismlarini tashkil qilib, siyosiy sistemani harakatga keltirib turadi.

Siyosiy sistema tarkibiga shunday bo'laklar va qismlar ham kiradiki, ular o'zlaridan oldin, ya'ni mazkur jamiyatdan oldingi jamiyat bag'rida endigina kurtak otib, asosan o'zi tug'dirgan jamiyat bag'rida siyosiy sistemaning tarkibiy qismi sifatida keng ravishda amal qiladi.

Masalan, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, bir qator ko'ngilli va ommaviy jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, xotin-qizlar tashkilotlari keying vaqtda shakllangan nodavlat tashkilotlar, mahallar shular jumlasidandir.

Mazkur uyushmalar, ittifoqlar, jamiyatlar va tashkilotlar ko'p va keng miqyosda ishlab chiqarish munosabatlarining hosilasi sifatida vujudga keldilar va amal qila boshladilar. Lekin sobiq Sovet davrida fanda odat tusiga kirgan nomlar kapitalizmdan sosializmga o'tish jarayonida ham ular jamiyatning siyosiy sistemasi tarkibiy qismlari sifatida yangi jamiyat tabiatiga hamda mazmuniga moslashgan holda amal qilishni davom ettiradilar, chunki sinfiy munosabatlar

jarayoni siyosiy munosabatlar orqali namoyon bo'lishni davom ettiraveradilar, jamiyatda aholi tabaqalanishiga ham muvofiqlasha boradi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotida o'rnatilgan va amal qilgan siyosiy sistemalar o'z tub mohiyati jihatidan to'rt xil ekanligi ma'lum. Ular quldorlik jamiyatining siyosiy sistemasi, feodalizm siyosiy sistemasi, kapitalizm jamiyatining siyosiy sistemasi, socialistik jamiyatning siyosiy sistemasi bo'lib, har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning o'ziga xos xizmat qiladigan siyosiy ustqurmasi bo'ladi, ular tarixan hodisa va voqoyalardir.

Shuning bilan birga har bir ijtimoiy iqtisodiy tuzum doirasida amal qiladigan siyosiy sistema mazkur tuzum hayoti davomida o'zining unga sodiqlik mohiyatini saqlab qolgani holda doimiy o'zgarib turish, boyib, takomillashib borish tartibiga ega ekanligini ham e'tirof etish zarurdir. Undan tashqari, bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o'tish davrlarida ham o'ziga xos mazmunga va tarkibiy qismlarga ega bo'lgan siyosiy sistemalarning yuzaga kelishi va amal qilishi mumkinligini tarixiy taraqqiyot tajribasi keltirib chiqaradi. Siyosiy sistemalarining o'tish davrlarida amal qilinadigan ko'rinishlarini ayniqsa «odatiy» kapitalizm yoki kapitalizmgacha bo'lgan, tuzumlardan sobiq sosializmgacha o'tish jarayonlarida, mustamlakachilik tuzumidan siyosiy mustaqillik tartibotlariga o'tish davrlarida amal qilishni bu yerda alohida e'tirof etish kerak bo'ladi.

Buyuk mutafakkir yurtdoshimiz Abu Nasr Forobiyning kishilar ijtimoiy birligi to'g'risida bundan o'n bir asr muqaddam yozib qoldirgan qo'yidagi fikri diqqatiga sazovordir: «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan kishilarni birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishish uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va

yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi»².

Markaziy Osiyoning yana bir buyuk mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy ham kishilarning ijtimoiy birligi to'g'risida fikr yuritib, shunday degan: «Hamma gap shundaki, inson, ehtiyojlarining ko'pchiligi va himoya vositalaridan mahrum bo'lganda chidamsizligi hamda dushmanlarning seroblighi orqasida o'zaro qo'llab-quvvatlash va har biri o'zini ham, boshqalarni ham ta'minlaydigan ishni qilish maqsadlarida o'z hamtavoqlari bilan jamiyat bo'lib birlashishga majbur bo'lgan edi»³.

Jamiyatning tarixiy rivojlanishi jarayonidan vujudga kelgan el-elat, qabila, urug', oila, jamoa kabi kishilarning ijtimoiy birligi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishi va yangi ishlab chiqarish munosabatlarining tarkib topishi bilan xalq millat kabi ijtimoiy birliklarga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Bu jarayonda mehnat taqsimoti, aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Tor ma'nodagi ijtimoiy tashkilotlar nisbatan barqaror va alohida kishilar guruhini o'z ichiga oladi. Uning aniq belgilangan maqsadi bo'lib, shu maqsadni amalga oshirish uchun faoliyat qiladi.

Ijtimoiy institutlar orqali kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning faoliyatini va xulqi tartibga solinadi. Jamiyat hayotining barqarorligi ta'minlanadi.

Jamiyat kishilarining o'zaro aloqadorlik birligidan iboratdir. Har qanday ijtimoiy tizim va uning elementlari boshqa tizimlar, ularning elementlari bilan funksional aloqadorlikda bo'ladi.

1. Ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy mavqye (status), ijtimoiy sanksiya va ijtimoiy rol tushunchalari.

Ijtimoiy munosabatlar kishilar, ijtimoiy guruhlar, millatlar, tashqi tabaqalar va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlar va ularning ichki iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy mafkuraviy va madaniy sohalaridagi faoliyatini tashkil qiladi.

² Abu Nasr Farobiy. "Fozil odamlar shaxri". T. A. Qodiriy nomiдаги халк маорифи нашриёти, 1993, 186-бет.

³ Беруний. Танланган асарлар, 3-том. Т. 1969, 83-бет.

Alohida olingan inson-jamiyatning, ijtimoiy munosabatlarning boshlang'ich unsuri hisoblanadi. O'z mohiyat e'tibori bilan ijtimoiy munosabatlar moddiy va ma'naviy mazmunda bo'ladi. Moddiy ijtimoiy munosabatlarga iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlari kiradi. Ustqurmaviy munosabatlar siyosiy, huquqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Ma'naviy munosabatlarga ahloqiy, mafkuraviy, diniy va boshqa munosabatlar jamlanadi. Jamiyat rivojlanish ijtimoiy munosabatlar rivoji bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, bir butun tizim sifatidagi jamiyat mohiyatini uning sohalari, tizimlari o'rtasidagi o'zaro funksional aloqadorlik qonunlari ifodalaydi.

1. Ijtimoiy tizimlarning o'z munosabatlarini saqlashiga intilishi.

2. Ijtimoiy tizimlarning tashqi muhitga nisbatan o'z chegarasini saqlashga intilishi orqali.

Ijtimoiy munosabatlarda moddiy ishlab chiqarish munosabatlarida, siyosiy, huquqiy, ma'naviy, madaniy, ahloqiy va boshqa munosabatlarda nisbatan belgilovchi xarakterga ega bo'lib, jamiyat hayotining umumsosialogik qonuniyatini ifodalaydi. Unda ro'y beradigan o'zgarishlar asta-sekin, boshqa barcha munosabatlardagi farqlarga olib keladi, shuningdek ma'naviyatdagi tub o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

Hozirda jamiyatimiz hayotida bozor munosabatlarning asta-sekin tarkib topib borishi o'z navbatida boshqa barcha ijtimoiy munosabatlarda muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqarishi tabiiy. Ayniqsa, bunday o'zgarishlar shaxs va uning jamiyat hayotidagi munosabatlarida yaqqol ko'rinishga boshlaydi. Hozirda shaxsning faolligi ijtimoiy mavqeyi ortmoqda.

Ijtimoiy mavqye (status) tushunchasi-alohida olingan bo'lib, bu inson yoki rivojlanish guruhning jamiyatda mavjud ijtimoiy tuzumda tutgan o'rni, egallab turgan mavqeyini ifodalaydi. Bu tushuncha orqali kishilarning ijtimoiy kelib chiqishi irqiy yoki o'zining harakati (ma'lumoti, ko'rsatgan xizmati) orqali erishgan darajasi o'rganiladi.

Jamiyat hayotini ilmiy tahlil qilish jarayonida, sosiologiyada ijtimoiy sanksiyalar tushunchasi muhim ahamiyatga ega. «Sanksiya» soʻzi lotincha soʻzdan olingan boʻlib, qatʼiy qaror maʼnosini anglatadi.

Ijtimoiy sanksiya deb, ijtimoiy guruh yoki tizimning individ xulqiga ijtimoiy normadan ijobiy yoki salbiy tomonga oʻzgarishiga nisbatan reaksiyasi tushuniladi. Ijtimoiy sanksiyalar deb jamiyat hayotini boshqarishda muhim ahamiyatga ega boʻlib, shaxsning ijobiy hatti-harakati uchun ragʻbatlantirish yoki yomon, salbiy hatti-harakati uchun jazo berishi bilan ijtimoiy nazorat vositasi boʻlib xizmat qiladi.

Ijtimoiy sanksiyalar kishilarning muayyan ijtimoiy guruhlar tarkibida jamoa bilan birgalikda davomli faoliyat koʻrsatishni taʼminlaydi.

Alohida individ taʼsir etishning vosita va usuliga qarab jismoniy sanksiyami «kaltaklash, ozodlikdan mahrum etish, oʻlim jazosi va boshqalar», iqtisodiy «mukofotlash, moddiy ragʻbatlantirish, jarima solish, mol-mulkidan mahrum etish va boshqalar) va ramziy (hurmat bildirish, izzat qilish, xayfsan eʼlon qilish kabi) sanksiya turlari mavjud.

Agar ijtimoiy sanksiya avvaldan shakllangan (davlat qonunlarida, nizomlarida, qonunda va farmonlarida belgilangan) tartibda boʻlsa, formal yoki rasmiylashgan sanksiyalar deyiladi.

Salbiy (xibsga olish, jarima, xayfsan berish) va ijobiy (xizmat lavozimini koʻtarish, orden va faxriy yorliqlar bilan mukofotlash) sanksiyalar ijtimoiy guruhlar va kishilar faoliyatini muayyan tartibda boshqarishni taʼminlaydi. Rasmiy ijtimoiy sanksiyalar davlat tomonidan saylangan yoki tayinlangan mutasaddi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Norasmiy ijtimoiy sanksiyalar bexosdan, stixiyali yuzaga kelib, ijtimoiy tartibdan chetlashilganda ijtimoiy muhit (xizmatdoshlar, doʻstlar, qarindosh-urugʻlar, qoʻni-qoʻshnilar va shu kabilar) tomonidan amalga oshiriladi.

Har bir kishi, shaxs maʼlum bir ijtimoiy guruhga, tizimga mansub boʻladi. Shuning uchun, ijtimoiy sanksiyalar doimo shaxs faoliyati yoʻnalishi, tartibi va obyekt oʻrtasida bilvosita taʼsirda boʻladi.

Hozirgi murakkab ijtimoiy rivojlanish jarayonida, bozor munosabatlariga o'tishdagi iqtisodiy qiyinchiliklar davrida sosiologiyada ijtimoiy sanksiyalarning yashirin (patent) oqibatlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Jinoyat sodir qilgan shaxs beriladigan jazodan qo'rqib o'z jinoyatini yashirish maqsadida, ongli ravishda yanada kattaroq, muthishroq jinoyatlarni sodir qilishi mumkin.

Fikrimizga misol qilib, qo'yidagi voqyeani olishmiz mumkin. Ko'ngil kuyiga kirib, yoshlik xatosi bilan S. ismli qiz turmushga chiqmay homilador bo'lib qoladi. Ko'pchilikdan uni yashirmoqchi bo'ladi. Sirni oshkor qilishga yuragi dov bermaydi. "Kasalni yashirsa isitmasi oshkora", - deganlaridek, vaqt-soati kelib, chaqaloq dunyoga keladi. Qiz atrofdagilarning tavqi-la'natidan qo'rqib, o'z farzandi-begunoh bola joniga qasd qiladi. Afsuski, bunday hodisalar yagona emas.

Shuning uchun ham, ijtimoiy sanksiyani sosiologiya fani doirasida o'rganish jamiyat va shaxs rivojlanishi ijtimoiy oqibatlarini ochish, aniqlash va zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab etadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatni, ishlab chiqarishni boshqarishning jamoada huquqiy tartibni mustahkamlashga va shaxs tarbiyasini yaxshilashga xizmat qiladi. Jamiyat hayotida ijtimoiy tizimlar tuzilmalarning ayrim olingan shaxsdan tortib, to yuqori darajadagi tizimgacha o'zining muayyan ahamiyati, vazifasi, maqsadga yo'nalganligi bo'ladi. Ijtimoiy rol jamiyat ijtimoiy tarkibida bog'lovchi ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning asosini tashkil qiladi. Ijtimoiy rol jamiyat ijtimoiy tarkibida psixologik jihatni ham o'zida namoyon qiladi. Shuning uchun G'arb sosiologiyasida ijtimoiy rolga juda katta e'tibor beriladi. Ijtimoiy tabiatini tushuntirishga harakat qiladilar.

4. Ma'naviyat ijtimoiy tizim sifatida. Jamiyat hayotining muhim tomonlaridan biri ma'naviyat bo'lib, o'ziga xos ijtimoiy tizim sifatida tarkibiy tuzilishga egadir. Ijtimoiy hayotning ma'naviyat sohasi mazmuni, eng avvalo, mafkura, ahloq, san'at, din va ijtimoiy hayotning boshqa nomoddiy jihatlarida namoyon bo'ladi. Bu soha o'zining xususiyatlari bilan jamiyatning ijtimoiy – siyosiy tizimidan ham farq qiladi. O'zbek xalqi o'zining milliy mustaqilligiga erishganligi munosabati bilan jamiyatimiz ma'naviyat tizimida tub o'zgarishlar

ro'y bermoqda. Ishlab chiqarish munosabatlarining yangi iqtisodiy va ijtimoiy mohiyati ma'naviy mazmun bilan to'ldirilmoqda. Bu sohada dunyoqarash muhim rol o'ynaydi.

Dunyoqarash – shaxs ma'naviyatining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Jamiyatning ma'naviyat tizimi o'z tarkibiga siyosiy, huquqiy ong, ahloq, fan, falsafa, san'at, diniy ong, mafkuraviy qarashlar va boshqa qarashlarni qamrab oladi. Ularning har biri ijtimoiy tarixiy faoliyatning muayyan tomonini tashkil qilib, ma'naviy oziq vositasi sifatida amal qiladi.

Ma'naviyat tizimi .yuqorida ko'rsatilganlar bilan cheklanmaydi. U yana boy mazmunga ega. Kundalik ong, ijtimoiy psixologiya, g'oya, mafkura va boshqa ma'naviy munosabatlar ham bu tarkibga kiradi. Ijtimoiy ong shakllari ma'naviyatda asosiy o'rin tutadi, mafkura esa yo'naltiruvchi kuchga ega bo'ladi.

Muayyan ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy munosabatlar asosida ma'naviy munosabatlar tarkib topadi. Shuning uchun ham inson ma'naviy dunyosining mazmuni juda murakkab bo'ladi. Shaxs ma'naviyati jamiyati ma'naviy, ahloqiy, hayoti, tizimning o'zagi, yuragi hisoblanadi.

Ma'naviyatni o'rganishda, ijtimoiy hayotda ayniqsa, milliy mustaqillikning hozirgi ilk rivojlanish bosqichidan shaxsning hissiy ehtiros darajasiga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega. Chunki, unda shaxsning milliy Vatan tuyg'usi, xalq ishi uchun fidoiylilik, ijodkorlik, shijoat, kelajakka ishonch bilan qarash kabi yuzaga keltirish zarur bo'lgan yashirin kuchlar yotadi.

Mustaqil O'zbekiston milliy mafkurasining shakllanish ma'naviyat sohasida jiddiy o'zgarishlar yasashi aniq. Milliy istiqlol mafkurasini jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan madaniy merosimizga bo'lgan munosabatda ham katta o'rin tutadi. Madaniy, ma'naviy meros har qanday millat, xalqning ulkan xazinasidir. «Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik ortirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, fojialar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi⁴.

⁴ И.А.Каримов. “Ўзбекистоннинг шиз истиклол ва тараққиёт йўли”. Т. “Ўзбекистон”, 1992 йил 72-бет.

Jamoat tashkilotlari davlat va siyosiy partiyalar bilan bir qatorda jamiyat siyosiy tizimining o'ziga xos alohida tashkilotlari hisoblanadi. Ular davlat hokimiyati tashkilotlaridan jamiyatning siyosiy munosabatlarida tutgan o'rinlari bilan farq qiladilar. Chunki ular davlat hokimiyati vakolatiga ega emas va hamma fuqarolar uchun majburiy hisoblangan qarorlarni qabul qila olmaydilar.

Bundan tashqari, ular mamlakatdagi barcha aholining manfaatini emas, balki ularning alohida guruhlarining manfaatlarini ifoda qiladilar va ularni o'z tashkilotlariga birlashtirishga harakat qiladilar. Ularning har biri o'z nizomlariga asoslangan holda faoliyat ko'rsatadilar. Ammo bundan jamoat tashkilotlari jamiyatning siyosiy hayotida qatnashmaydilar, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak.

Yuqorida aytilgan fikrlardan shunday xulosa keltirib chiqarish mumkinki, joylarda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlaridan tortib, vakillik, ijroiya, sud organlarigacha bo'lgan idora tizimlarini barpo etish barcha siyosiy va jamoatchilik harakatlari va partiyalar shu bilan birga mustaqil respublikamiz aholisining hamma qatlamlaridan vakillik bo'lgan respublika parlamenti bo'lib hisoblangan Oliy majlis parlamentni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Jamiyatimizning turli sohalarda erishgan yutuqlarida jamiyat siyosiy sistemasidan tarkib topgan jamoat tashkilotlariga qadar bo'lgan kuchlarning ishtiroki juda katta bo'ldi. Islohiy jarayonlar, iqtisodiy, ijtimoiy hayotimizning hamma sohasini qamrab, olib turmush tarzimiz, ongimiz chuqurroq kirib bordi. 1995 yil O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan, xalqaro tizimlaridan mustahkam o'rin egallashi ham davlat hokimiyati siyosiy tizimining tobora mustahkamlashib borayotganligidan dalolat beradi.

Jamiyat siyosiy sistemasini, jamiyat tashkilotlarini tinimsiz ishlari tufayli, respublikamizda ishlab chiqarishning o'sishi sezilarli rivoj topmoqda, xalqimizning turmush sharoiti barqarorlashishi boshlandi, huquqiy davlatning demokratik prinsiplari sezilarlik darajada mustahkamlashib bormoqda. Mustaqillikka erishgan davlatimiz tarixida eng samarali va mazmunli yutuqlarga erishmoqda. Bu yutuqlar mutsaqilligimizning 15-yillik yubileyi natijalaridan ham

ma'lumdir. Jamiyatimizning siyosiy sohadagi yana eng muhim yutug'i shundan iboratki, fuqarolar va millatlararo totuvlik- tinchlik saqlanmoqda. O'zaro hurmat bag'rikenglik, do'stlik hayotiy ehtiyoj ekanligini mamlakatimiz fuqarolari tobora ravshan his etmoqdalar. Bugun O'zbekistonda davlatchiligimizga xavf solishi mumkin bo'lgan, jamiyatimiz asoslarini o'zgartira oladigan siyosiy kuch yo'q.

Kundan-kunga shakllanib borayotgan ijtimoiy-siyosiy, hamda davlat tizimi, bir tomondan-xalqimizning ko'p asrlik tarixiy natijalari, madaniyatining yuksakligi, qo'lga kiritgan yutuqlari shu bilan birga, jahonning yana ilg'or tajribalarini hisobga olgan holda ish olib borayogan bo'lsa, ikkinchi tomondan mustaqil respublikamizdagi mavjud real shart-sharoitlarni tarixiy istiqbolni nazarda tutitb ish olib bormoqda. Bularning hammasi bizni jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashimizda o'zrolini ko'rsatmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich kirib borayotgan 25 millionli respublikamiz aholisining ruhiyatidan ishchanlik, uddaburonlik xususiyatlari shakllanib borayotir. Jahon iqtisodiyot, siyosat, madaniyat darvozalari keng ochilib turgan bugungi kunda O'zbekistonliklarning ongida katta burilish ishlari yuz bermoqda. Tan olishimiz kerakki, hozirgi kunga kelib, xususiylashtirishning birinchi bosqichi muvaffaqiyat bilan o'tdi. Horij sarmoyasini mahalliy ishlab chiqarishga jalb qilish, eksport, import ulushlarini ko'paytirish borasidagi vazifalar samara bilan amalga oshirilayotgan bir paytda islohatlarning bosh harakatga keltiruvchilarni-ishbilarmonlarning ma'naviy qiyofasi muhim kasb etmoqda. Zero, mamlakat har qancha gullab yashnamasin, u ma'naviy jihatdan barkamol holatda bo'lmasa, dunyo hamjamiyatida o'z nufuziga ega bo'la olmasligini har qanday siyosatshunos, sosiolog yaxshi biladi. Shuning uchun ham ijtimoiy jamiyatning siyosiy sistemasi va siyosiy hokimiyat organlarida ish olib borayotgan har bir hodim shuni yaxshi bilishi lozimki, ijtimoiy jamiyatning siyosiy tuzilishi ishlarida jamiyat tashkilotlari tomonidan olib borilayotgan sosial-siyosiy ishlarga faqat katta ahamiyat beribgina qolmasdan, ularni yetarli darajada rag'batlantirib borish ham lozim.

Yangi mafkura yanada iloji boricha shakllantirmasdan turib, mustaqillikni mustahkamlash va taraqqiyot mafkurasi sharoitida ko'p partiyaviylikka amal qilinmasa, mamlakatda katta o'zgarish yasab bo'lmaydi. O'zbek xalqining boy tarixiy merosi, milliy qadriyatlari, yangi mafkurani yaratish va undan ijodiy foydalanishda muhim o'rin egallaydi.

Milliy istiqlol mafkurasi mamlakatimiz ijtimoiy hayotining archa jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning bir ko'rinishidir. Yangi mafkura jumhuriyat barcha qatlamlari, guruhlari, jumladan talabalar ongi, tafakkuri, dunyoqarashi milliy qadriyatlar, mustaqillik qadriyatlari bilan boy etish va shu bilan birga ularning ongini milliy qadriyatlar, ma'naviy o'tmish merosimiz istiqlol tuyg'usini tarbiyalash va mustahkamlash orqaligina o'tish davri qiyinchilarini muvaffaqiyat bilan yengib chiqishimiz mumkin.

Xulosa

Yer yuzidagi odamlar jamoa bo'lib yashay boshlaganlaridan buyon jamiyat hayoti amal qila boshlagan, lekin jamiyatning siyosiy hayotini mutadillashtirish va muayyan bir tartibga solish zaruriyati ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik vujudga kelishi natijasida tug'iladi. Sekin-asta mazkur zaruriyat kuchayib jamiyatning shu soha hayotini uyg'unlashtirib turadigan siyosiy sistemasiga aylanib boraveradi, takomillashaveradi.

U yoki bu jamiyatning siyosiy sistemasi deganimizda, uning doirasida amal qilinadigan siyosiy hayot na siyosiy hokimiyat muassasalari sistemasini anglaymiz. Muqarrar tarzda jamiyatning siyosiy sistemasi tabiati uning ijtimoiy-iqtisodiy bazisidan, ishlab chiqarish usulidan kelib chiqadi va uning ustiga quriladi, iqtisodiy bazis siyosiy ustqurmasini tashkil qiladi.

Jamiyat siyosiy sistemasining muassasalar sistemasiga siyosiy hokimiyat idoralari, siyosiy firqalar, ommaviy jamoat tashkilotlari kiradi. Demak, jamiyatning siyosiy sistemasi – ma'muriy muassasalar, siyosiy va ommaviy jamoat tashkilotlari majmuidan iborat ekan, ya'ni yaxlit bir sistemaning alohida-alohida amal qiladigan, lekin dialektik tarzda bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketgan va bir-biriga o'zaro ta'sir o'tkazib turadigan bo'laklaridan tashkil topar ekan.

Siyosiy sistema jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy sistemasi bir qatordagi kichik sossietal-qo'yi sistemalardan iborat sistemalardan biridir. Sossietal sistemalar o'z mohiyati va tarkibiy tuzilishiga ko'ra qo'yidagi 4 ta: 1) iqtisodiy; 2) ijtimoiy; 3) siyosiy va 4) mafkuraviy qo'yi sistemalarga bo'linib, siyosiy sistema ma'lum jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Siyosiy sistema jamiyatning boshqa sistemalaridek, qaysi tomonlari bilan farq qiladi?

Birinchidan, bu farq siyosiy sistemaning ustunligida namoyon bo'ladi, bu uning doirasida qabul qilinadigan qarorlarning butun jamiyat va uning kichik sistemalari uchun majburiylikini anglatadi.

Ikkinchidan, uning ijtimoiy muhit va eng birinchi galda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy strukturasi bilan bog'lanib ketganligidir.

Siyosiy sistemaning uchinchi eng muhim xususiyati- uning nisbiy mustaqilligidir, u strukturalar, rollar, funksiyalarning maxsus qurilmasi mavjudligi bilan belgilanadi.

Har bir jamiyatning siyosiy sistemasi o'ziga barqarorlik va hayotiylikni kafolatlovchi ma'lum qurilma mavjudligi bilan harakterlanadi. Bu esa siyosiy tashkilotlar (davlat va siyosiy partiyalar) asosida siyosiy hokimiyatda namoyon bo'ladi.

Shuning uchun jamiyatning siyosiy sistemasini tashkil etgan tarkibiy qismlari va bo'laklari o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik, o'z ta'sir o'tkazishi jarayonlariga uyg'unlik va mutanosiblik zarurligini singdirgan holda ularning ham har biri zinapoyalashgan kompleks holdagi muassasaviy sistemalar sifatida ichki mustaqillik qonunlariga amal qilish jamiyat siyosiy sistemasining omili va samarali amal qilishi garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. 1993, 10-12, 13 bet.
2. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». Toshkent, 1999.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». Toshkent, 1997.
4. Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li». Toshkent, 1994.
5. Karimov I.A. «Iqtisodiy islohot mas'uliyatli bosqich». Toshkent 1994.
6. Karimov I.A. «Istiqlol va ma'naviyat». Toshkent, 1994.
7. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». Toshkent, 1998
8. Karimov I.A. «Istiqlol yo'li. Muammolar va rejalar». Toshkent, 1992
9. Bekmuradov M, «Sosiologiya asoslari». Toshkent «Fan» 1994
10. Yunusov K. «Sosiologiya» (o'quv qo'llanma). Andijon, 1997
11. Shayxova X, Nazarov K.»Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot». Toshkent, 1992, 58-70 betlar.
- 12.«Sosiologiya» (darslik). M., 1990.
- 13.Ma'ruza matni.